Mustaqil ishlab chiqilgan ish tartibi: mantiqan tuzilgan, asoslangan o'zaro bog'liq bo'lgan to'g'ri xulosa chiqarish orqali bir xil bo'lmagan topshiriqlarni echish uchun o'zlashtirilgan bilimlarni o'zgartira olish ko'nikmalarini tekshirish ta'lim oluvchilar berilgan topshiriq va uni echish uchun ma'lum bo'lgan qoidalar asosida mustaqil ish tartibini tuzishi kerak- **3 va undan ortiq harakat qilinadi.**

Tashqi doira maydonini ichki doira maydoniga nisbatini ko'rsating:

- $R = 4; r = 2.$
- A. 3:1
  - B. 4:1
  - V. 6:1
  - G. 8:1

**IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)**

Topshiriqni echish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutmagani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi.

## O'quv topshirig'i

### Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyatiga darajali yondashuv asosida uch darajali testlarni ishlab chiqing.

1. Guruhlar ichida kichik uch guruhlariga bo'lingan holda ishlar amalga oshiriladi.
  2. Har bir kichik guruh o'zlashtirishning bitta darajasi uchun testlar ishlab chiqadilar va natijalarni jadvalga kiritadilar.
  3. Birinchi va ikkinchi guruh 1 va 2 darajadagi har 3 turi bo'yicha testlarni ishlab chiqadilar.
- Uchinchi guruh esa 3 darajadagi 3 ta test ishlab chiqadilar.

*Tavsiyalar:* 1. "Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish" (V. Bospalko bo'yicha) jadvalidan foydalaning.

2. Ishni bajarish vaqti -10 daqiqa.

3. Natijalar "Maqsadni belgilash, test va test topshiriqlarini ishlab chiqish" jadvaliga kiriting.

### Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish ( V. Bospalko bo'yicha)

Test maqsadi	Testlar toifasi va turlari	Xususiyatlari	Javoblar	Test topshiriqlarini ifodalash namunalari
Talabalar avval o'rgangan materialni tanishini tekshirish (o'zlashtirishning I darajasi)	1. Tanib olishlikka oid topshiriq	Bir vaqtni o'zida (aytib berish uchun) <i>topshiriq va javobdan</i> iborat bo'ladi	«Ha» «Yo'q»	... hisoblanadimi?
	2. Ajratib olishlikka oid topshiriq	<i>Savol hamda tanlash uchun javob variantlaridan</i> iborat bo'ladi	1) 2) 3) 4)	...shulardan qaysi biri... to'g'riligini ko'rsating
	3. Tasniflashlikka oid topshiriq	Mos qismlarni taqqoslash topshiriqlaridan iborat bo'ladi	1-(a) 2-(v) 3-(b) 4-(g)	Mosliklarni ko'rsating(ularning tushunchasi va belgilanishi)
	1. Qo'shimchalar qo'yiladigan testlar	Hohlagan shaklda: og'zaki, belgili, chizmalarda taqdim etilgan fikrlarni to'ldirish talab	yo'q	... (formulani) to'ldiring, (etishmayotgan elementni)... ko'rsating

	etiladi		
2. Tuzilishlik (konstruktorlik)-ka oid testlar	Esda qolganlarni aytib berishlarsiz qayta takror tiklashni talab etadi	yo'q	Bu "(tushuncha / ifodalash ko'rsatiladi) nima?"... CHizma chizing ... Uchun formulani yozing
3. Namunaviy topshiriqlar	Ma'lum bo'lgan qoidalarni qayta tiklash va uni izlanayotgan natija uchun qo'llash talab etiladi	1) 2) 3) 4)	Namunaviy topshiriq
Nooddiy topshiriqlar	Namunaviy tartib ostidagi topshiriqlarni oxiriga etkazishda, qo'shicha ma'lumotlarni qidirish uchun, dastlabki sharoitlarni o'zgartirish talab etadi.	1) 2) 3) 4)	Nooddiy topshiriqlar

Testlarni bajarish natijalari o'quv jarayonida quyidagicha baholanadi:

I darajada - "3"

II darajada - "4"

III darajada - "5"

*Agarda o'quv mashg'ulotining maqsadi "...to'g'risida umumiy tassavurni shakllantirish" bo'lsa, va bunda talaba birinchi darajadagi barcha testlarni bajarsa talabaga qanday baho qo'yiladi?*

## 6-mavzu: Ta`lim usullari

### 6.1. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mavzu:	Ta`lim usullari	
<b>Laboratoriya mashg'ulotining maqsad, vazifalari</b>	<b>Ta`lim beruvchining o'quv maqsadlari:</b> - loyihalar usuli - keys-stadi usuli - muammoli vaziyatlar usuli - ishbilarmonlar o'yini - insert usuli - "Birgalikda o'ynaymiz" usullarini o'rganish	<b>Ta`lim oluvchi uchun kutilayotgan natijalar:</b> - loyihalar usuli - keys-stadi usuli - muammoli vaziyatlar usuli - ishbilarmonlar o'yini - insert usuli - "Birgalikda o'ynaymiz" borasidagi nazariy bilimlarini amaliy asoslaydi; - O'z mutaxassisligida dars iglanmasi ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	loyihalar usuli - keys-stadi usuli - muammoli vaziyatlar usuli - ishbilarmonlar o'yini - insert usuli - "Birgalikda o'ynaymiz" usullarini o'rganish	
<b>Laboratoriya mashg'ulotini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<b>Shakl:</b> laboratoriya-treningi, kichik guruhlardagi audio-vizual ijodiy ish, 80 daqiqa davomida <b>Metod:</b> amaliy, ko'rgazmali metodlari <b>Vosita:</b> laboratoriya ishlanmalari, tarqatma materiallar, elektron ishlanmalar, magnit doska, A-3 formatdagi qog'ozlar, markerlar <b>Nazorat:</b> kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy tahlil <b>Baholash:</b> rag'batlantirish, ijodiy ish taqdimoti asosida mezoniy baholash <b>O'qitish sharoiti:</b> Trening o'tkazishga moslashtirilgan o'quv xonasi	

### 6.2. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Trenerning harakatlari	Talaba faoliyati
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. Auditoriyaning trening mashg'ulotiga tayyorgarlik holatini tekshiradi. 1.2. Talabalarni tayyorlagan ijodiy uy	1.1. Treningga tayyorlanadi. 1.2. Tayyorlagan ijodiy ishini

	ishlarini tekshiradi, baholaydi. 1.3.Talabalarni tarqatmalar yordamida kichik guruhlarga bo'ladi.	taqdimot qiladi. 1.3.Kichik guruhlarga bo'linadi.
<b>2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)</b>	2.1. Mavzu, trening maqsadi, undan kutilayotgan natijalarni e`lon qiladi. 2.2. «T-sxema» metodi asosida loyihalar usuli : - keys-stadi usuli - muammoli vaziyatlar usuli - ishbilarmonlar o'yini - insert usuli -“Birgalikda o'ynaymiz” usullarini tavsiflash 2.3. Talabalarning «T-sxema» asosida tayyorlagan ijodiy ish taqdimotlari namoyishini tashkil etadi, bildirilgan fikr-mulohazalarni navbati bilan tinglaydi va ularni umumlashtiradi. 2.4. Taqdimotdan so'ng talabalarga «T-sxema» metodidan darslarda foydalanish metodikasini tushuntiradi, va o'z mutaxassisligiga moslashtirish vazifasini topshiradi. 2.5.Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlanmalar namoyishini tashkil etadi va faol guruhlarni rag'batlantiradi.	2.1. Tinglaydi, yozib oladi. 2.2.Tinglaydi, kichik guruhlarda ishlaydi, o'z munosabatini yozma tarzda bildiradi. 2.3.Taqdimot o'tkazadi, fikrlarini asaslantiradi, beradi, muhokamada ishtirok etadi. 2.4.Tinglaydi, tasavvurlarini aniqlashtiradi, kichik guruhlarda ijodiy ish tayyorlaydi. 2.5.Taqdimot o'tkazadi, tingalaydi, mulohaza bildiradi.
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	3.1.Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan o'tkazadi, talabalar tomonidan ma`ruzani va interfaol metodni o'zlashtirilganlik darajasini individual baholaydi. 3.2. Mustaqil ta`lim uchun «T-sxema» metodi asosida o'z mutaxassisligidan ixtiyoriy ma`ruzada mashg'ulot ishlanmasini tayyorlab kelishni topshiradi va zaruriy ko'rsatmalarni beradi.	3.1. «Feedbaek» da ishtirok etadi, baholanadi. 3.2. Tinglaydi, topshiriqni va zaruriy ko'rsatmalarni yozib oladi.

**Mustaqil ish uchun topshiriq: «T-sxema» asosida mutaxassislik faniga moslab ixtiyoriy ma`ruzada ijodiy ishlanma tayyorlab kelish.**

**“T – sxema”**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod biror tushuncha, yoki ma`ruza bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi.

Bunda ta`lim oluvchi shaxsidagi:

Mustaqil va ijodiy fikrlash; Axborotlar tizimini tahlil etish; O'z pozitsiyasida qat'iy turish; O'z-o'zini nazorat qilish va baholash; Muloqotchanlik va o'zgalar fikriga hurmat; Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

O'qituvchi o'quvchilarni miqdor jihatdan teng gurhlarga ajratadi;

O'quvchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi;

Taroqatmalar o'quvchilar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

Bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy yo'nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi;

Belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga etgach, barcha guruhlarning faollari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi;

Barcha guruhlarning yakuniy xulosalari o'qib eshittirilganidan so'ng, trener-o'qituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo'shimcha to'ldirishlarni kiritadi.

**Kutiladigan natija:** O'quvchilar ma`ruza yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, ma`ruzaning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

намуна

afzalligi	kamchiligi

**Xulosa**

**keys-stadi usuli**

<b>afzalligi</b>		<b>kamchiligi</b>

**muammoli vaziyatlar usuli**

<b>afzalligi</b>		<b>kamchiligi</b>

**insert usuli**

<b>afzalligi</b>		<b>kamchiligi</b>



Ta`limning usullari – ta`lim texnologiyasining komponenti. Ta`limning *interfaol usullari*

Mualliflik keys-texnologiyasini loyihalashtirish

O`quv loyihalarni taqdimoti va baholanishi

Mualliflik loyihaviy ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish

## **7-MAVZU: “TA`LIM VOSITALARI TUSHUNCHASI VA MAZMUNI” MAVZUSIDAN “KEYS” STADI TEXNOLOGIYASI**

**Keysning asosiy maqsadi:** Zamonaviy ta`lim vositalarining turlari va tavsifi. Ta`limda o`quv-ishlab chiqarish vositalari. Ta`lim vositalarining rivojlanish istiqbollari. Ta`lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ulardan majmuaviy foydalanishni o`rganish.

### **O`quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:**

- 1) Zamonaviy ta`lim vositalarining turlarini o`ziga xosliklarini ochib berish;
- 2) Ta`lim vositalarining rivojlanish istiqbollarini ketma-ketlikda modellashtirish;
- 3) Ta`lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasini o`rganish, tahlil etish va klassifikatsiyasini tayyorlash.

**Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar oldindan quyidagi bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishlari lozim:**

*Talaba quyidagilarni bilishi kerak:*

Ta`lim vositalari, o`quv-ishlab chiqarish vositalari, ta`lim vositalari tizimi, majmuaviy foydalanish, natural (tabiiy) ob`ektlar, o`quv modellari, mulyajlar, maketlar, nashriyot texnologiyalari, telekommunikatsiya, katta maketlar, ommaviy axborot vositalari, kompyuter robototexnikasi.

*Talaba quyidagi ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak:*

tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlashtirish, loyihalash, modellashtirish.

*Talaba quyidagi malakalarga ega bo`lishi kerak:*

individual va hamkorlikda ishlash, kognitiv, evristik, kreativ faoliyat malakalari.

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo`lib, aniq topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob`ekti Kasb-hunar ta`limida ta`lim vositalarining turlari va tavsifi hamda ulardan majmuaviy foydalanishni o`rganishga yo`naltirilgan. Bu tashkiliy keys bo`lib, ma`lumotlar topshiriqlar asosida tuzilgan. Hajmi o`rtacha tizimlashtirilgan bo`lib, treningga mo`ljallangan. Mavzu yuzasidan ko`nikma va malakalarni egallashga yo`naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko`ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi modelni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish texnologiyasini yaratish va baholashga yo`naltirilgan. Ushbu keysdan “Kasb ta`limi metodikasi” va “Kasbiy pedagogika” fanlarini o`qitishda foydalanish mumkin.

**Tavsiya etilayotgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:**

1) Kasb-hunar ta'limi vositalari klassifikatsiyasi tuzilishi, fazasi haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

2) topshiriqlarni hal etish orqali kasb-hunar ta'limi vositalari klassifikatsiyasiga doir modellarni o'zlashtirish;

3) mustaqil ravishda kasb-hunar ta'limi vositalarilari klassifikatsiyasini modellashtirish ko'nikmasini egallash.

## **MUAMMOLI TOPSHIRIQLARNI BOSQICHMA-BOSQICH TAHLIL ETISH VA HAL ETISH BO'YICHA TALABALARGA METODIK KO'RSATMALAR**

### **Talabalarga yo'riqnoma**

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyanomalar
1.Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Ta'lim vositalariga doir modellar bilan tanishning va modellarning tarkibiy qismlari, ularning mazmunini o'rganing. O'rganib chiqish vaqtida modellarga tavsifnoma yozishga va ta'lim vositalarining umumiy modelini ishlab chiqishga shoshilmang ( <i>1-, 4-illovalar</i> ).
2.Muammoli topshiriqlar bilan tanishish	Taqdim etilgan modellar mazmuni bilan yana bir marotaba tanishib chiqing. Modellar tarkibidagi tushunchalar va jummalarga diqqatingizni jalb qiling. Modillarda kasb ta'limining umumiy ta'lim vositalarini qaysi jihatlariga e'tibor qaratishni aniqlang ( <i>1-, 4-illovalar</i> ).
3.Muammoli topshiriqni tahlil eting.	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb eting. Asosiy muammo: O'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling: 1.Zamonaviy ta'lim vositalarining turlari va tavsifi. 2.Ta'limda o'quv-ishlab chiqarish vositalari. 3.Ta'lim vositalarining rivojlanish istiqbollari. Ta'lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ulardan majmuaviy foydalanish ( <i>1-2-3-4-illovalar</i> ).
4.Muammoli topshiriqlarni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Kasb-hunar ta'limi vositalariga doir modellarga tavsifnoma yozishda "Kasb ta'limining umumiy vositalari" jadvalini to'ldirishga kirishing. Tavsifnomalarni yozishda aniq xususiyatlarni belgilab olishga harakat qiling. Jadvalni to'ldiring. ""ni ishlab chiqishda kasb ta'limi vositalarini yodda saqlang va ulardan foydalanishni ko'z oldingizda gavdalanitiring ( <i>3-4-5-illovalar</i> ).

**“Kasb ta’limining umumiy vositalari” jadvalini to’ldiring**

Modellarning yo’nalishlari	Modellarni kasb ta’limining umumiy vositalari	Modellarni modernizatsiyalashni talab etuvchi jihatlar

**Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko’rsatkichlari**

Talabalar ro’yxati	Modellarning kasb ta’limining umumiy vositalari va modernizatsiyalashni talab etuvchi jihatlari aniqlangan. – mak.2 ball.	Kasb ta’limining umumiy vositalari modeli ishlab chiqilgan. – mak. 3 ball.	Jami. – mak. 5 ball.

Eslatma: guruhlar faoliyatini baholash uchun yuqoridagi jadvalning birinchi ustuniga “guruhlar ro’yxati” jumlasini qo’yiladi. Biroq guruhning to’plagan ballari talabalarning reyting bali hisobiga kiritilmaydi. Siz talabaga hamkorlikda ishlash uning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishini tushuntirishga tayyor bo’ling.

**O’quv metodik hujjatlar**

O’qituvchilar o’quvchilarga o’quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim printsiplaridan biri — *ko’rsatmalilik* printsipidan foydalanadilar.

Didaktikada *ko’rsatmalilik* printsiipi konkret bilan abstraktning birligi to’g’risidagi qoida asosida ko’rib chiqiladi. Narsa yoki hodisaning aslini yoki tasvirini idrok etish inson uchun atrofdagi borliqni, biror haqiqatni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi hamda o’rganilayotgan narsalar, jarayonlar, hodisalar to’g’risida aniq tasavvurlar va abstrakt tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o’taydi.

*Ko’rsatmali qo’llanmalar* — o’quvchilarni o’rganiladigan ob`ektlar, hodisalar, jarayonlar to’g’risida yaqqol (asosan ko’rish) tasavvurlar hosil qilish metodida o’qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar. O’zlashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o’quvchilarda mavjud bo’lgan tasavvur, tushuncha, hayot va ish tajribasiga, darsning konkret vazifalariga qarab ko’rsatmali qo’llanmalar

o'qitishda har xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Tabiiy ob'ektlarga sirasiga jonli va jonsiz tabiat ob'ektlari kiradi, ta'lim oluvchilar ular bilan mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar

Modellar tabiiy ob'ektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi.

Mulyaj (maket)lar moddiy ob'ektlarga aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmalardir.

Mulyaj va maketlar atrof-muhit hodisalarning tashqi belgi va xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi.

**4-ilova**

O'qitish vositalari

1 – jadval

Darslik	Sxemalar
Masalalar to'plami	O'qitish qo'llanmalari
Ma'lumotnoma	Ma'ruza konspekti
Jadval	O'quv ob'ekti
Eskiz	Tarqatma material
Rasmlar	Laboratoriya daftar
Plakatlar	Xarita
Ko'rgazmali plakatlar	O'quv dastur
Laboratoriya ishlarini bajarish ko'rsatmasi	Nazorat dasturi
Diagramma	Maket
Ish daftari	Xarakatlanuvchi model
	Chizmalar

O'qitishning texnik vositalari

2 – jadval

Diapozitiv	Diafilm
Kinofragment	Kinofilm
Televizion namoyishlar	Dual-karta
Stereofilm	Perfokarta
Slaydlar	Identifikatsion xarita

## Texnik qurilmalar


3 – jadval

Diaskop	Ko'rsatish pulti
Negataskop	Filmoskop
Kadroproektor	Epiadoskop
Kodoskop	Filmoproektor
Diaproektor	Stereoproektor
Vidiomagnitafon	Ko'chma kinoproektor
Tutashmalar o'quv televizion tizimlari	Kinoqurilma
Magnitafon	Videomagnitafon
Mikrofon	Televizion namoyish qurilmasi
Radiopriemnik	Diktafon
Magnitafon-informator	Radiomikrofon
Maslaxat-televizion majmuasi	Trenajyor
Nazorat avtomatlashtirilgan sinf	Ko'chma trenajyor
Trenajyor stend	Displey
Trenajyor majmualari	Boshqaruv pulti
Plakatlarni ko'tarish moslamasi	Lazer ko'rsatkich
	Yorug'likni sozlovchi elektrorazetka

## Zamonaviy o'qitish vositalari

4 – jadval

Bosma o'quv qo'llanmalari	Elektron pochta
Kompyuter ta'limi	Qayta aloqani ta'minlovchi televidenie
Audio dasturlari	Asta-sekin skanerdan o'tkazuvchi televidenie
Video dasturlari	Televizion videokonferentsiya
Bosma o'quv metodik materiallar	Videokonferents aloqa
Gipermatn(gipermedia) ko'rinishidagi o'quv qo'llanmalari	Videotelefon
Elektron ko'rinishdagi o'quv metodik qo'llanmalar	Magnit lentalarida qayd etiluvchi video yozuvlar
Radio	Aniq vaqtda kompyuter vositasida tashkil etiluvchi konferentsiyalar
Retranslyatsion tarmoq	An'anaviy pochta
Audioyozuvlar	Elektron e'lonlar doskasi
Audiokonferentsiya	Dasturiy ta'minot vositalari
Ovozli pochta	
Ovozli va qayta aloqani ta'minlovchi televidenie	



**Asosiy  
adabiyotlar**

1. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
2. SHaripov SH.S., A.I.Vorobyov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta'lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
3. Tolipov O'.Q., M.Barakaev, SH.S. SHaripov Kasbiy pedagogika. – Toshkent.: 2003. – 88b.
4. Haydarov B., B.Nuridinov va boshqalar Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – O'MKHTRI. Toshkent.: 2002.- 184 b.

**8-mavzu: GRAFIKLI ORGANAYZERLAR TEXNIKASI**

**8.1. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi**

<b>Mavzu:</b>	<b>Ta'limda innovatsiya</b>
---------------	-----------------------------

<b>Laboratoriya mashg'ulotining maqsad, vazifalari</b>	<b>Ta`lim beruvchining o'quv maqsadlari:</b> -Grafikli organayzerlar texnikasiini o'rgatish; -Grafikli organayzerlar texnikasihaqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish; -Noan`anaviy ta`limning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.	<b>Ta`lim oluvchi uchun kutilayotgan natijalar:</b> - Grafikli organayzerlar texnikasi to'g'risidagi mavjud bilimlarini umumlashtiradi, mustahkamlaydi; - Grafikli organayzerlar texnikasi borasidagi nazariy bilimlarini amaliy asoslaydi; -O'z mutaxassisligida noan`anaviy metodlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	- Grafikli organayzerlar texnikasi; - Noan`anaviy ta`limning o'ziga xos xususiyatlari tahlili	
<b>Laboratoriya mashg'ulotini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<b>Shakl:</b> laboratoriya-treningi, kichik guruhlardagi audio-vizual ijodiy ish, 80 daqiqa davomida	
	<b>Metod:</b> amaliy, ko'rgazmali metodlari	
	<b>Vosita:</b> laboratoriya ishlanmalari, tarqatma materiallar, elektron ishlanmalar, magnit doska, A-3 formatdagi qog'ozlar, markerlar	
	<b>Nazorat:</b> kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy tahlil	
	<b>Baholash:</b> rag'batlantirish, ijodiy ish taqdimoti asosida mezoniy baholash	
<b>O'qitish sharoiti:</b> Trening o'tkazishga moslashtirilgan o'quv xonasi		

## 8.2. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

<b>Faoliyat bosqichlari, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Trenering harakatlari</b>	<b>Talaba faoliyati</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. Auditoriyaning trening mashg'ulotiga tayyorgarlik holatini tekshiradi. 1.2.Talabalarni tayyorlagan ijodiy uy ishlarini tekshiradi, baholaydi. 1.3.Talabalarni tarqatmalar yordamida kichik guruhlarga bo'ladi.	1.1.Treningga tayyorlanadi. 1.2.tayyorlagan ijodiy ishini taqdimot qiladi. 1.3.Kichik guruhlarga bo'linadi.

<p><b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy qism</b> <b>(60 daqiqa)</b></p>	<p>2.1.Mavzu, trening maqsadi, undan kutilayotgan natijalarni e`lon qiladi.</p> <p>2.2. «T-sxema» metodi asosida: -Grafikli organayzerlar texnikasi; -Kasb ta`limi fanlarini o`qitishda grafikli organayzerlardan foydalanish; -Noan`anaviy darslarning o`ziga xos xususiyatlari yo`nalishlarida tayyorlangan tarqatmalarni guruhlariga beradi va topshiriqni tushuntiradi.</p> <p>2.3.Talabalarning «T-sxema» asosida tayyorlagan ijodiy ish taqdimotlari namoyishini tashkil etadi, bildirilgan fikr-mulohazalarni navbati bilan tinglaydi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.4.Taqdimotdan so`ng talabalarga «T-sxema» metodidan darslarda foydalanish metodikasini tushuntiradi, va o`z mutaxassisligiga moslashtirish vazifasini topshiradi.</p> <p>2.5.Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlanmalar namoyishini tashkil etadi va faol guruhlarini rag`batlantiradi.</p>	<p>2.1.Tinglaydi, yozib oladi.</p> <p>2.2.Tinglaydi, kichik guruhlarda ishlaydi, o`z munosabatini yozma tarzda bildiradi.</p> <p>2.3.Taqdimot o`tkazadi, fikrlarini asoslab beradi, muhokamada ishtirok etadi.</p> <p>2.4.Tinglaydi, tasavvurlarini aniqlashtiradi, kichik guruhlarda ijodiy ish tayyorlaydi.</p> <p>2.5.Taqdimot o`tkazadi, tingalaydi, mulohaza bildiradi.</p>
<p><b>3-bosqich.</b> <b>YAkuniy qism</b> <b>(10 daqiqa)</b></p>	<p>3.1.Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan o`tkazadi, talabalar tomonidan ma`ruzani va interfaol metodni o`zlashtirilganlik darajasini individual baholaydi.</p> <p>3.2.Mustaqil ta`lim uchun «T-sxema» metodi asosida o`z mutaxassisligidan ixtiyoriy ma`ruzada mashg`ulot ishlanmasini tayyorlab kelishni topshiradi va zaruriy ko`rsatmalarni beradi.</p>	<p>3.1.Munozarada ishtirok etadi, baholanadi.</p> <p>3.2.Tinglaydi, topshiriqni va zaruriy ko`rsatmalarni yozib oladi.</p>

**Mustaqil ish uchun topshiriq: «T-sxema» asosida mutaxassislik faniga moslab ixtiyoriy ma`ruzada ijodiy ishlanma tayyorlab kelish.**

**“T – sxema”**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod biror tushuncha, yoki ma`ruza bo`yicha o`rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo`llaniladi.

Bunda ta`lim oluvchi shaxsidagi:

Mustaqil va ijodiy fikrlash; Axborotlar tizimini tahlil etish; O`z pozitsiyasida qat`iy turish; O`z-o`zini nazorat qilish va baholash; Muloqotchanlik va o`zgalar fikriga hurmat; Jamoada ishlash ko`nikmalari rivojlanadi.



Metodni amalga oshirish tartibi:

O'qituvchi o'quvchilarni miqdor jihatdan teng guruhlariga ajratadi;

O'quvchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi;

Taroqatmalar o'quvchilar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;


Bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy yo'nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi;

Belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga etgach, barcha guruhlarining faollari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi;

Barcha guruhlarining yakuniy xulosalari o'qib eshittirilganidan so'ng, trener-o'qituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo'shimcha to'ldirishlarni kiritadi.

**Kutiladigan natija:** O'quvchilar ma'ruza yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, ma'ruzaning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

1-namuna



### Grafik organayzerlar texnikasi

**Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi)** – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi.


Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (vokea va xodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liklikni o'rnatish usul va vositalari: **Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali**

Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: **T-jadvali, Venna diagrammasi**

Muammoni aniqlash, uni xal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: «Nima uchun?», «Baliq skeleti», «Piramida», «Nilufar guli» sxemalari, «Kanday?» ierarxik diagrammasi, «Kaskad» tarkibiy-mantikiy sxema


3.1. Ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bulib chiqish, urganilayotgan tushunchalar (vokea va xodisalar, mavzular) urtasidagi aloka va uzaro bogliklikni urnatish usul va vositalari


**Insert jadvali**



V	+	-	?

## Klaster





### Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G`oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to`xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e`tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to`xtatmang. Agarda aqlingizda g`oyalar kelishi birdan to`xtasa, u holda qachonki yangi g`oyalar kelmaguncha qog`ozga rasm chizib turing.

## TOIFALASH JADVALI

### ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

Тоифа-хусусият ва муносабатларни муҳимлигини намоён қилувчи (умумий) аломат.

Ажратилган аломатлар асосида олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.

Тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш, тизимлаштириш кўникмаларини

Тоифаларни жадвал кўринишида расмийлаштирадилар. Ғояларни / маълумотларни тоифага мос равишда бўладилар. Иш жараёнида тоифаларнинг айрим номлари ўзгариши мумкин. Янгилари пайдо бўлиши мумкин.

Иш натижаларининг тақдими

### *Toifalash sharhini tuzish qoidasi*

1. Тоифалар бўйича маълумотларни тақсимлашнинг ягона усули мавжуд эмас.
2. Битта мини - гуруҳда тоифаларга ажратиш бошқа гуруҳда ажратилган тоифалардан фарқ қилиши мумкин.
3. Таълим олувчиларга олдиндан тайёрлаб қўйилган тоифаларни бериш мумкин эмас бу уларнинг мустақил танлови бўла қолсин.


## TOIFALASH JADVALI

<b>Dasturiy ta`minot</b>		
Tizimli dasturiy ta`minot	Amaliy dasturlar paketlari	Dasturlash tillari
<p>1. Operatsion tizimlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ MS DOS</li> <li>▪ Linux</li> <li>▪ Windows</li> <li>▪ Unix</li> </ul> <p>2. Servis dasturlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Antivirus dasturlari                             <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Utilitlar</li> <li>▪ Obolochki</li> </ul> </li> <li>▪ Arxivatorlar va h.q..</li> </ul>	<p>1. MBBT</p> <p>2. Matn muharirlar</p> <p>3. Elektron jadvallar</p> <p>4. Grafik muharirlar</p> <p>5. Tarjimachilar</p> <p>6. Muammoga mo`jallangan va h.q..</p>	<p>1. Paskal</p> <p>2. Delphi</p> <p>3. SI++</p> <p>4. Beysik</p> <p>5. Java</p> <p>6. PHP va h.q.</p>

### Ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashning yo`l va vositalari

#### VENN DIAGRAMMASI





**T – jadval**

T – jadval қоидалари танишилади. Якка тартибда расмийлаштирилади

**T – жадвал**  
 - бита концепция  
 (маълумот)нинг жиҳати  
 ўзаро солиштириш ёки  
 уларни (ҳа/йўқ, ҳа/қарши)  
 учун.  
 Танқидий мушоҳада  
 ривожлантиради

Ажратилган вақт оралиғида тартибда (жуфтликда) тўлдиради, унинг чап томонига сабаблари ёзилади, ўнг томонига эса чап томонда ифода қарама – қарши ғоялар, омиллар ва шундай қилиб


Жадваллар жуфтликда (гурӯҳда) таққосланиши тўлдирилиши

Барча ўқув гурӯҳи ягона T – тузади.


<i>Afzalliklar</i>	<i>Kamchiliklar</i>


**Muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishning yo'llari va vositalari**

**“Nima uchun” sxemasi**







**“Baliq skeleti” chizmasi**

**“Балиқ скелети” чизмаси**  
 Бир қатор муаммоларни тасвирлаш ва уни ечиш имконини беради.  
 Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда юқори “суягида” кичик муаммони ифодалайди, пастда эса, ушбу кичик муаммолар мавжудлигини тасдиқловчи далиллар ёзилади

Кичик гуруҳларга бирлашадилар, таққослайдилар, ўзларининг чизмаларини тўлдирадидилар. Умумий чизмага келтирадидилар.

Иш натижаларининг тақдимоти

## «Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari

1. Ko'pgina hollarda muammoni echishda "nima qilish kerak"ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni echishda "buni qanday qilish kerak?", "qanday" asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

"Qanday" savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:

muammoni echish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish;

quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalarni aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni echishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro'yxatiga mos keladi.

1. Barcha g'oyalarni o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak;


Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin;

Agarda chizmada savol uning "shoxlarida" bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni echishning asosiysi bo'lishi mumkin;

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda: daraxt yoki kaskad ko'rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o'ngda qayd qilinishini o'zingiz hal etasiz;

Agarda siz o'zingizga to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi

### «NILUFAR GULI» chizmasi



*«Nilufar guli» chizmasi*

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

**«Nilufar» guli chizmasini tuzish qoidalari**

- Amaliy nuqtai nazardan barcha g'oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.
- Sizga katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Doimo o'zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Qaysi sath bilim, ko'nikma, malaka kabi sifatlarni o'z ichiga oladi?**

- A) Temperament satxi
- B) Psixik jarayonlar xususiyatlari satxi
- V) SHaxs tajribasi satxi
- G) SHaxsning yo'nalغانlik sathi

**2. Pedagogik texnologiyaning aspekti aks ettirilgan qatorni ko'rsating?**

- A) Umumpedagogik, xususiy metodik, lokal
- B) Tizimlilik, samaralik, boshkaruvchanlik
- V) Insonparvarlik, dialektik metodik.
- G) Ilmiy, tavsifiy, amaliy

**3. Qanday tasnifga ko'ra pedagogik texnologiyalar: umumpedagogik, xususiy, lokal turlariga bo'linadi?**

- A) Falsafiy asosga ko'ra
- B) Qo'llanish darajasiga ko'ra
- V) Etakchi olimlarga ko'ra
- G) Ilmiy kontseptsiyasiga ko'ra

**4. Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aks etgan qatorni toping**

- A) Tafsifiy, ilmiy, amaliy
- B) Kontseptual asos, ta'lim jarayonini mazmuni, texnologik jarayon
- V) Umumpedagogik, predmetli, lokal
- G) Muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan, tabaqalashtirilgan o'qitish

**5. Falsafiy asos bo'yicha pedagogik texnologiyalar qanday turlarga bo'linadi?**

- A) Biogenli, sotsiogenli, psixogenli, informatsion
- B) Sinf - dars, muqobilligi guruhli, jamoali
- V) Ijodiy, dasturli, o'yinli tizim, muammoli
- G) Dialektik, insonparavar, pragmatizm, materialistik.

**6. An'anaviy ta'limda o'qituvchining bosh vazafasi nimalardan iborat?**

A) Axborotni qabul qilish, yordam, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish

B) O'quv topshiriqlarni va muammoli hal etishda ishtirok etish, doimo o'z bilimini boyitish, kerakli bahoni kutish

V) O'z bilimini mustaxkamlash maqsadida sidqidildan mehnat qilish o'z iqtidorini namoyon etish

G) O'zini va boshqalarni hurmat qilish, hamkorlikda ishlash, kitobxonlik bilan shug'ullanish

**7. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada nechanchi yillarda paydo bo'lgan?**

- A) 1960 yillarda
- B) 1970 yillar
- V) 1990 yillar
- G) 2000 yillar

**8. Qaysi qatorda muammolikni ikkinchi darajasi (sathi) ifodalangan?**

A) O'kituvchi muammo (vazifa)ni o'zi qo'yadi va o'quvchilarning faol ishtiroki ostida qo'yilgan vazifani o'zi echadi.

B) O'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quvchilar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va echadilar

V) O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni o'qituvchi echadi

G) O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni o'zi echadi

**9. Dasturlashtirilgan ta'lim metodi nima?**

A) O'quv dasturlarini tuzish

B) O'quv dasturlarini ro'ybga chiqarishga qaratilgan tavsiyalar ishla chiqish

V) maxsus tuzilgan ta'limiy dasturlar bo'yicha EXM vositasida o'qitish-o'rgatish

G) An'anaviy ta'lim jarayonini o'quv dasturlari asosida tashkil qilish

**10. Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkonini beradigan metodning nomi?**

A) Klasterlarga ajratish

B) Kubik

V) Bumerang

G) Sinkveyin

**11. O'quvchilaning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar qanday ataladi?**

A) Aralash dars

B) Didaktik uyinli dars

V) O'yinli dars

G) Insert

**12. «Pedagogik texnologiya - o'qituvchi maxoratiga bog'liq bo'lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini loyihasidir, deb tarif bergan olimning nomi nima?**

A) V.M. SHepel

B) G.K. Selevko

V) V.F. SHatalov

G) V.G. Bospalko

**13. XVII asrda YA. A. Komenskiyning didaktik printsiplari asosida shakllanib, xozirda eng ko'p qo'llanilayotgan siif-dars tizimi pedagogik texnologiyaning qaysi turiga kiradi?**

A) Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari

B) O'quv faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar

V) O'quv jarayonini samarali boshqarishga asoslangan texnologiyalar.

G) Hozirgi an'anaviy ta'lim texnologiyalari

**14. Bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi nima deb ataladi?**

A) Pedagogik tizim.

- B) Pedagogik o'yin
- V) Pedagogik faoliyat
- G) Pedagogik takt

**15. Pedagogik texnologiya tushunchasini YUNESKOning ta'rifi:**

A) Pedagogik texnologiya – amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyixasi

B) Pedagogik texnologiya – ta'lim–tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar, usullar majmuidir

V) Pedagogik texnologiya – oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini izchil amalga oshirishdir

G) Pedagogik texnologiya – ta'lim shakillarini qulaylashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini belgilash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir.

**16. Tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiya yo'nalishining nomi?**

- A) Kreativ
- B) Inversion
- V) Adaptiv
- G) Empirik

**17. Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi – mualliflik texnologiyalarga kiruvchi qatorni toping?**

- A) Muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari
- B) Xamkorlik pedagogikasi, erkin tarbiya, insonparvar — shaxsiy texnologiya
- V) Ijodiy va informatsion texnologiyalar
- G) Guruxli va individual texnologiyalar

**18. An'anaviy ta'limning maqsadi nimadan iborat?**

- A) O'quvchini faollashgiris
- B) Intizomli qilib tarbiyalash
- V) O'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga o'rgatish
- G) O'quvchiga o'qituvchi tajribasini o'rgatish

**19. Pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida, xamda boshqalar tomonidan qayta qo'llash imkoniyatini beruvchi texnologik kursatkichning nomini toping?**

- A) Samaradorlik
- B) Tizimlilik
- V) Qayta tiklash
- G) Boshqaruvga asoslanganlik

**20. Pedagogik texnologiyalar mazmun va tuzilmasi xarakteri bo'yicha qanday tasniflanadi?**

- A) Ta'lim beruvchi, dunyoviy, gumanistik
- B) Ijodiy, rivojlantiruvchi, evristik
- V) An'anaviy, kompyuterli, dasturli

G) O'yin, muloqot, axborotli

**21. Mavjud an'anaviy tizimni yangilash yunalishlari bo'yicha pedagogik texnologiyalar qanday tasniflanadi?**

A) Munosabatlarni insonparvarlashtirish asosida

B) Tabiatga monandlik

V) Muqobillik asosida

G) Ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish asosida

**22. L.V. Zankovning rivojlantiruvchi o'qitish kontsepsiyasi qanday nomlanadi?**

A) Insonni shakllantiruvchi tizim

B) SHaxsning erta jadallashtirilgan xar tomonlama rivojlanish sistemasi

V) SHaxsga e'tibor beruvchi tizim

G) Faollikka undovchi tizim

**23. Tanqidiy fikrlash asosini tashkil kiluvchi fazalarning nomlari yozilgan qatorni toping?**

A) CHaqiruv, anglash, muloxaza qilish, refleksiya

B) Da'vat, idrok, sezish

V) Anglash, o'ylash, xulosa chiqarish

G) Muloxaza qilish, fikir yuritish, izlanish

**24. Ma'lum bir maxsulotni ishlab chiqarish, texnologik operatsiyalarni ketma – ketligini bayon qiluvchi yoki jarayonining bosqichma – bosqich, izchillik bilan qo'llanilgan vositalarini ko'rsatib bergan xolda tasvirlovchi xujjat qanday nomlanadi?**

A) Reja bayonnomasi

B) Texnologik karta

V) Dars ishlanmasi

G) O'qitish texnologiyasi

**25. Kasbiy o'qitish mohiyati qanday pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan?**

A) Maqsadga erishish, xaqiqatni izlab topish

B) Didaktik tayyorgarlik, bilimlarni mustaqil egallash

V) Intizom, iroda, ixtisoslikka bo'lgan qiziqish

G) Nazariya va amaliyotni chambarchas bog'lab olib boriladi

**26. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?**

